

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR  
MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**AKRAMOVA SURAYO RENATOVNA**

**JAMOL KAMOL SHE'RIYATIDA TOJIKCHA-O'ZBEKCHA  
LEKSEMALARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI**

**10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti (tojik tili va tojik adabiyoti)**

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)**

**Akramova Surayo Renatovna**

Jamol Kamol she'riyatida tojikcha-o'zbekcha leksemalarning leksik-semantik xususiyatlari ..... 3

**Акратова Сураё Ренатовна**

Лексико-семантические особенности таджикско-узбекских лексем в поэзии Джамала Кемаля..... 21

**Akramova Surayo Renatovna**

Lexico-semantic features of Tajik-Uzbek lexemes in Jamal Kemal's poetry ..... 41

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ  
List of publications..... 45

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR  
MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**AKRAMOVA SURAYO RENATOVNA**

**JAMOL KAMOL SHE'RIYATIDA TOJIKCHA-O'ZBEKCHA  
LEKSEMALARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI**

**10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti (tojik tili va tojik adabiyoti)**

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PhD/Fill 436 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdu.uz) hamda "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Choriyev Tavakkal Ravshanovich</b> filologiya fanlari nomzodi, professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Shokirov Tug'ral Sirojovich</b> filologiya fanlari doktori, professor <b>Alimova Xolida Zikrillayevna</b> filologiya fanlari doktori, professor
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>Farg'ona davlat universiteti</b>

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "6" aprel soat 11<sup>20</sup> da majlislar zalida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40; e-mail:rector)@samdu.uz.

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (40 raqami bilan ro'yxatga olingan) Manzil:140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "23" mart kuni tarqatildi.  
(2023-yil "23" mart dagi 113 raqamli reyestr bayonnomasi).



**M.Q.Muhiddinov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

**D.B.Xursanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik Ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**D.B.Urinbayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik Ilmiy kengash seminar raisi, filologiya fanlari doktori, dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida muayyan xalqning adabiy tili taraqqiyotiga munosib hissa qoʻshgan ijodkorlarning badiiy asarlari tilini turli leksik-semantik, lingvopoetik va lingvokulturologik aspektlarda oʻrganishga alohida eʼtibor qaratilib kelinmoqda. Ijtimoiy ong va tafakkur rivojida muhim oʻringa ega badiiy asarlar tilining badiiy-estetik, lugʻaviy-maʼnaviy va lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berish hamda adabiy tildagi mazkur jihatlarning taraqqiyot qonuniyatlarini aniqlash filologiya fani uchun barcha davrlarda ham dolzarb muammolardan biri boʻlib qolmoqda.

Dunyo adabiyoti va tilshunosligida mazkur muammo insoniyat badiiy tafakkurida qadimdan bugungi globallashuv davrlarigacha mavjud boʻlgan turli lisoniy obrazlarni muayyan badiiy asarlar misolida aniqlash, oʻrganish, tizimlashtirish, tavsiflash zamonaviy tilshunoslik, xususan, lingvopoetika hamda lingvokulturologiya yoʻnalishining muhim vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, madaniyati, urf-odatlarini bir-biriga yaqin boʻlgan oʻzbek va tojik tilining lisoniy mushtarakligini, oʻzaro taʼsiri masalalarini Jamol Kamol sheʼriyati misolida tadrijiy rivojlanishini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish zaruratini taqozo etadi.

Mamlakatimiz hayotida kechayotgan tub islohotlar boshqa sohalar qatori tilshunoslik yoʻnalishida ham oʻzining amaliy ifodasini topmoqda. Shu boisdan oʻzbek adabiyotining yorqin namoyondasi Jamol Kamol sheʼriyatining lugʻaviy, uslubiy xususiyatlarini zamonaviy ilmiy-metodologik tamoyil va usullar asosida oʻrganish, tojik hamda oʻzbek adabiy tili taraqqiyotidagi tarixiy ahamiyatini toʻgʻri yoritish, baholash kun tartibidagi masalaga aylanmoqda.. Zero, "...Adabiyot va sanʼatga, madaniyatga eʼtibor – bu avvalo, xalqimizga eʼtibor, kelajagimizga eʼtibor ekani, buyuk shoirimiz Choʻlpon aytganidek, adabiyot va madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yoʻq"<sup>1</sup>. Shunday ekan, "Ikki tilda soʻzlaydigan bir xalq" oʻrtasida madaniy, ijtimoiy aloqalar boʻlganidek, tillar aro ham xuddi shunday aloqa, soʻz oʻzlashishi va oʻzlashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF 4947-son "Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida"gi Farmonlari, 2019-yil 21-oktabrdagi "Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PF-5850-sonli Farmoni, 2020-yil 6-noyabrdagi "Oʻzbekistonning yangi taraqqiyot davrida taʼlim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PF-6108-son Farmoni, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrda 984-son Qarori bilan "Davlat tilini rivojlantirish departamenti toʻgʻrisida"gi Nizomi, 2017-yil 17-fevraldagi PQ 2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida", 2017-yil 20-apreldagi PQ 2909-son "Oliy taʼlim tizimini yanada rivojlantirish chora-

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh. Adabiyot va sanʼat, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz maʼnaviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir // "Xalq soʻzi", 2017-yil, 4-avgust.

tadbirlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 24-iyuldagi “Samarqand davlat universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 571-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha oliy ta’limi tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli Qarori hamda 2020-yil 11-martdagi “O‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 139-sonli Qarorida mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” yo‘nalishiga muvofiq bajarildi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Tilshunoslikda xususiy lisoniy omillar har biri aniq tilga xos qoidalarni o‘z ichiga oladi. Chunonchi, har bir til (hattoki bir oilaga mansub tillarda ham) o‘ziga xos fonetikaga, leksik sathga, grammatik qurilishga, stilistik uslublarga ega. Demak, bu ikki tur (faktorlar) bir-birini taqozo qiladi, umumiylik xususiyatlarini o‘z ichiga oladi. So‘zlarning vaziyat talabiga ko‘ra ma’no kasb etishi, so‘zlovchi mahoratini aks ettiradi. Leksemalarning o‘z va ko‘chma semalari, nutqdagi ahamiyati, poetikada ma’no semalarining turlanishi kabi masalalar jahon hamda Yevropa tilshunosligida XIX asrdan boshlab ancha keng tadqiq etib kelinmoqda. G.Paul, U.Vaynrayx, V.Y.Rozentsveyg, V.A.Avrarin, E.M.Vereshagin kabi olimlarning bu muammoga doir salmoqli tadqiqotlari yaratilgan. O‘zbek tilshunosligida A.Navoiy, Abdurauf Fitrat, E.D.Polivanov, A.K.Borovkov, F.Abdullayev, U.Tursunov, V.V.Reshetov, M.Mirzayev, K.Yusupov, K.Rahmonberdiyev, N.G‘ulomova, H.G‘ulomov kabi olimlarning qator ishlarida tillarning o‘zaro aloqalari, xususan tojik va o‘zbek tillarining o‘zaro munosabati haqida muhim fikrlar bildirilgan. Tojik tilshunos olimlari Q.Tohirova, M.Muhammadiyev, N.Ma’sumiy, B.Niyozmuhammedov, R.G‘afforov, Sh.Rustamov, N.Sharopov, B.Kamoliddinov, A.Hasanov, T.Shokirov, A.Vohidov, N.Solihov<sup>1</sup>, R.G‘afforov<sup>2</sup>, T.Choriyev, o‘zbek tilshunos olimlari E.Begmatov, I.Qo‘chqortoyev, A.Hojiyev, H.Ne‘matov, A.Rustamov, A.Mamatov, G‘.Abdurahmonov, S.G‘oyipov, T.Mullayev, M.Mirtojiyev, G.Muhammadjonova, R.Rasulov, N.Mahmudovlarning monografiyalarida tojik adabiy tilidagi o‘zbekcha o‘zlashma so‘zlar va o‘zbek adabiy tilidagi tojikcha so‘zlarning o‘ziga xos xususiyatlari haqida qisqacha ma’lumotlar qayd etilgan. Biroq o‘zbek adabiyotida o‘zining go‘zal she’riyati, qolaversa, madaniy merosimizni boyitgan tarjimalari bilan adabiyotimizga, yosh avlod tafakkuri rivojiga ulkan hissa qo‘shgan Jamol Kamol she’riyati adabiyotshunoslik nuqtayi

<sup>1</sup> Солихов Н. Ахамияти ва зарурати Фарҳангшиносии араб ва форсу тоҷик. Паёми донишгоҳи миллии Тоҷикистон. Бахши илмҳои филологӣ 2020. №7 2020. – В. 121.

<sup>2</sup> G‘afforov R. Zabon va uslubi Rahim Chalil. – Dushanbe:1966.

nazaridan keng tarzda tadqiq etilgan bo'lsa-da, tilshunoslik nuqtayi nazaridan, xususan, tilning leksik-semantik tadqiq imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o'rganilmagan. Adabiyotshunoslikda ustoz olim O.Safarovning "Ulkan shoir va iste'dodli tarjimon", "Asr haqiqatlarining she'riy tarannumi" (L.Sharipova bilan hammualliflikda), "Ziyorat zamzamalari yoxud "Safar daftari" she'riy turkumi" nomli maqolalarida shoir ijodi tadriji, uning aruzda bitgan she'rlari, bu asarlarning badiiy qimmatini kabi masalalar o'z ifodasini topgan<sup>1</sup>. Bundan tashqari N.Rahimjonov, Sh.Hasanov, D.Quvvatovalarning doktorlik, Sh.Aldasheva, D.Nazarova, K.Qarshiyevlarning filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarini, I.Haqqulov, N.Rahimjonov, Shukrullo, A.Samad, X.Davron, R.Raupov<sup>2</sup> singari olimlarning shoir to'plamlariga yozgan so'zboshilari, maqola va taqrizlarini alohida ta'kidlash lozim.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaloriga muvofiq «O'zbek tilshunosligida til, shaxs va jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari» (2016-2023 yy.) mavzusidagi ilmiy-tadqiqot yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Jamol Kamol she'riyati misolida tojik va o'zbek adabiy tili leksikasining o'zaro ta'siri, shoirning ikki til orasidagi aloqadorlikni yuzaga chiqarishdagi o'ziga xos mahorati, tojikcha-o'zbekcha leksemalarning leksik-semantik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

shoir she'rlarida tojikcha-o'zbekcha leksemalardan foydalanishdagi o'ziga xosligini, leksik birliklarni turli mavzular rang-barangligi bo'yicha tasnif etish va shu orqali Jamol Kamolning o'zbek adabiy tili so'z boyligini rivojlantirishdagi o'rnini ko'rsatish;

so'zlarni shakl va ma'no turlariga ko'ra tahlil etish va olingan natijalar bo'yicha davr adabiy tili leksikasida so'z ma'nosi bilan bog'liq jihatlarni belgilab berish;

tojikcha va o'zbekcha kontekstual ma'nodoshlar, darajalanishi (graduonimiya) antonim, omonimlarning lingvopoetik vazifaviy jihatlarni ochib berish;

shoirning tojikcha va o'zbekcha neologizmlarni qo'llash mahoratini va har ikkala tilning tadrijiy rivojlanishiga qo'shgan hissasini aniqlash;

---

Safarov O. Ulkan shoir va iste'dodli tarjimon. Asr haqiqatlarining she'riy tarannumi. (L.Sharipova bilan hammualliflikda). Ziyorat zamzamalari yoxud "Safar daftari" she'riy turkumi // Kitobda: Safarov O. Buxoro adabiy harakatchiligi tarixidan lavhalar. –Buxoro: Durдона, 2015. – B. 379-405.

2. Рахимджанов Н. Лирическая поэма (на основе материалов узбекской поэзии 1961-1973 гг.): Автореф. дисс... канд. филол наук. –Ташкент, 1975. –23 с. Shukrullo. Shoir haqida so'z. Kitobda: Jamol Kamol. Umidli dunyo. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988. –B . 3., Haqqulov I. She'riyat – dard va umid dyemak // Buxoro mavjlari, 2008. № 3. –B.23. Haqqulov I. She'riyat – dard va umid demak. Kitobda: Jamol Kamol. Saylanma. Olti jildlik. I jild. Asr bilan vidolashuv. –Toshkent, G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2018. –B.5-21. Samad A. Suvaydo. Kitobda: Jamol Kamol. Yana ko'nglimda ul oy. –Toshkent: MERIYUS, 2010. –B. Nazarova D. Jamol Kamol she'riyatida poetikasi. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori diss-yasi. Buxoro.2021. Qarshiyev K. Jamol Kamol she'riyatida janrlar va shakllar rang-barangligi. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori diss-yasi. Samarqand.2022.

tojikcha-o'zbekcha so'zlarning emotsional-ekspressivlik munosabatni ifodalash holatlarini asoslash;

metafora asosida ma'no ko'chishining lingvopoetik xususiyati, vazifasi hamda imkoniyatlarini aniqlash, badiiy-estetik qiymatini ochib berish.

**Tadqiqotning obyektini** sifatida Jamol Kamol she'riyatidagi tojik va o'zbek adabiy tillariga mansub leksik birliklar belgilangan.

**Tadqiqotning predmetini** Jamol Kamol she'riyatida tojikcha va o'zbekcha leksemalarning leksik-semantik tahlili tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada tavsiflash, kontekstual, lingvopoetik va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Jamol Kamol she'riyati leksikasidagi tojikcha-o'zbekcha leksemalarning qo'llanish darajasi, genetik asosi, o'zaro nisbati, faollik darajasi, miqdori, mavzuviy guruhlari aniqlanib, ikki tilga xos so'zlarning metaforik, metonimiya va sinekdoxa kabi leksik-semantik xususiyatlari ochib berilgan;

shoir she'rlarida *hayot osmoni, umid ummoni, quyosh og'ushi, hansirar qoya, og'ochlar jim, sog'inch kezar tanamda, keksa ochun* kabi metaforalarning odatiy, sinestetik kabi semantik, ekspressivlik, bo'yoqdorlik kasb etuvchi poetik-estetik tabiati hamda so'z, ibora, omonim, antonim va she'riy san'atlarni ta'minlovchi lingvopoetik imkoniyatlari isbotlangan;

tojik tilidan o'zbek adabiy tiliga o'zlashib dominant leksemaga aylangan *bahor, daraxt, gul, dil* kabi leksemalarning shoir she'rlaridagi o'zbek tilida mavjud tarixiy, arxaik, neologizm singari ma'noviy jihatlari dalillangan;

ijodkorning badiiy mahoratini belgilovchi *ko'rkam-fusunkor; dil-yurak, ko'ngil; ko'rgulik-savdo; fusun-chiroy* kabi sinonimlarni bir misraning o'zida ketma-ket qo'llash orqali ifodadorlikni oshiruvchi individualligi, "dil" va "jon" konseptlarining faol birlik sifatida ahamiyat kasb etishi (dilpora, dilband, dilshod, dilxun, mehri dil, porayi dil) va badiiy nutqdagi qo'shma so'z hamda izofali birikmalarning uslubiy vazifalari aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tadqiqot natijasida chiqarilgan ilmiy xulosalar kelgusida ijtimoiy va falsafiy yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar uchun qimmatli va boy manba bo'lib xizmat qilishi, tilshunoslik va adabiyotshunoslik doirasida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan ilmiy tadqiqotlar yaratish uchun foydalanish mumkinligi aniqlangan;

tilshunoslikda lug'aviy-badiiy, lingvokulturologik tahlili amalga oshirilgan;

Jamol Kamol ijodi orqali tojik va o'zbek tilining o'zaro aloqadorlik o'rinlari belgilangan;

ushbu mavzu tadqiqi natijasida chiqarilgan xulosalar tilshunoslikda muhim ilmiy-nazariy ma'lumotlar berilishiga, ijodkor she'riyatining o'ziga xos jihatlari borasidagi nazariy-amaliy mashg'ulotlarning tashkil etilishiga, darslik va qo'llanmalarining mukammalashuviga xizmat qilishi dalillangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** muammoning aniq belgilanganligi, uning talab darajasida ilmiy asoslanganligi, nazariy ma'lumotlar va faktik materiallar ishonchli ilmiy, badiiy manbalardan olinganligi, metodik jihatdan mukammal asoslanganligi, tavsiflash, lingvopoetik, kontekstual, statistik tahlil



usullariga asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, tadqiqot natijalarining vakolatli tuzilmalar tomonidan e'tirof etilganligi, muammo milliy madaniyat va tilning o'zaro aloqadorligiga ko'ra yoritilganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tojikcha-o'zbekcha leksemalarning o'ziga xos o'rni, lingvopoetik xususiyatlari hamda badiiy-estetik vazifalari xususidagi bilimlarni mukammallashtirishda, ularni aniq tizim bo'yicha o'rganishda, lingvopoetika, til va madaniyat aloqalarini o'rganuvchi sohalaridagi ilmiy-nazariy muammolarni hal qilishda, shoir she'rlari asosida tojikcha-o'zbekcha leksemalar asosida lug'at-ma'lumotnomalar yaratishda, ularning badiiy-estetik va lingvomadaniy tabiatiga daxldor masalalarni tadqiq etishda namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, tilshunoslikning nutq madaniyati va badiiy matnning lingvistik, lug'aviy-badiiy tahlilini amalga oshirishda, «Matn lingvistikasi» va «Lingvopoetika» fanlaridan o'quv qo'llanmalar yaratish, seminarlar tashkil qilish hamda amaliy mashg'ulotlar uchun o'quv qo'llanmalar va metodik tavsiyalar yaratishda foydalanish samara berishi, ommaviy axborot vositalarida Jamol Kamolning so'z tanlash borasidagi mahoratini targ'ib etishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi.** Jamol Kamol she'riyatida tojikcha-o'zbekcha leksemalarning leksik-semantik xususiyatlari tadqiqi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Jamol Kamol she'riyati leksikasidagi tojikcha-o'zbekcha leksemalarning qo'llanish darajasi, genetik asosi, o'zaro nisbati, faollik darajasi, miqdori, mavzuviy guruhlari aniqlangani, ikki tilga xos so'zlarning metaforik, metonimiya va sinekdoxa kabi leksik-semantik xususiyatlari haqidagi xulosalardan O'zRFA QB Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan F1-FA-0-13229-raqamli "Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional so'z yasalishi" mavzusidagi fundamental loyihani bajarishda qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2022- yil 25-martdagi 111/1- son ma'lumotnomasi). Natijada tilshunoslikning lingvopoetik tahlil metodlarini takomillashtirish imkoni yaratilgan.

Jamol Kamol she'rlaridagi o'zbekcha, fors-tojikcha leksik sathi va tarixiy-arxaik, neologizmlar tarkibi, uslubiy ma'nolari hamda lingvopoetik ahamiyati muallif tomonidan tayyorlangan o'quv qo'llanma boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, ana shu maqsadlarni amalga oshirish uchun xizmat qiladi. 2021-yildan boshlab amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2022-yil 25-martdagi 113/1-son ma'lumotnomasi). Natijada "Boshlang'ich ta'limda bolalar adabiyoti" o'quv qo'llanmasida shoir she'rlarida leksik sath, o'zlashma so'zlarning o'ziga xos ma'noviy jihatlari aniqlangan;

Ijodkorning badiiy mahoratini belgilovchi sinonimlarni ketma-ket qo'llash orqali ifodadorlikni oshiruvchi individualligi, faol birlik sifatida ahamiyat kasb etuvchi leksemalardan foydalanishi haqidagi xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot

instituti Qoraqalpog‘iston filialida amalga oshirilgan A3-2016-0908165532 raqamli “Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi” mavzusidagi fundamental loyihani bajarishda foydalanildi (O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialining 2022-yil 15-noyabrdagi 318/1-son ma’lumotnomasi). Natijada umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchilarining og‘zaki va yozma nutqini shakllantirish samaradorligiga oid aniqlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shoir she’rlaridagi metafora, metonimiya, sinekdoxa asosidagi ma’no ko‘chishlarning ahamiyati haqida ilgari surilgan ilmiy xulosalardan “Buxoro” telekanalining “Assalom, Buxoro”, “Sakkizinchi mo‘jiza” ko‘rsatuvlarida foydalanildi. Keltirilgan tahlillar esa teletomoshabinlarning bilimi, kitobxonlikka qiziqishini oshirish imkonini berdi (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2022- yil 21-apreldagi 1/87-son ma’lumotnomasi). Natijada ushbu ko‘rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashuviga, ilmiy dalillarga boy bo‘lishiga, ko‘rsatuvning ilmiy-ommabopligi ta’minlanishiga erishilgan;

“Jamol Kamol she’riyatida tojikcha-o‘zbekcha leksemalarning leksik-semantik xususiyatlari” mavzusidagi dissertatsiyasida ilgari surilgan ilmiy xulosalardan 2021-2022-yillarda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyati bo‘limi huzuridagi “Nilufar” adabiy to‘garagi mashg‘ulotlari materiallarini tayyorlashda foydalanildi (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyati bo‘limining 2022- yil 1-avgustdagi 19-son ma’lumotnomasi). Natijada, yoshlarning umuminsoniy g‘oyalarning kamol topishiga, so‘z boyligining oshishiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari bo‘yicha 6 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma’ruza qilingan va aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiyaning umumiy mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy maqola, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo‘yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 6 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda e’lon qilingan.

**Tadqiqotning tuzilishi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Umumiy hajmi 134 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, ishning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, ob‘yekti va predmeti aniqlangan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijasi, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi,

eʼlon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Poetik nutqda soʻzlarning lugʻaviy vazifasi”** deb nomlanadi. U ikki fasldan iborat. Bobning birinchi fasli “Oʻzbek tili leksikasining tarixiy etimologik qatlamlarini oʻrganishning nazariy asoslari” deb atalgan. Bunda tilshunoslikda til leksikasi sistemasidagi sohalarni guruhlarga ajratib oʻrganishda lugʻaviy qatlamlar bilan birgalikda “maydon” tushunchasi qoʻllanilish hollari ham uchrashi, oʻzbek tili leksikasining tarixiy, etimologik qatlamlari haqida soʻz boradi. Shuni taʼkidlash kerakki, tilning lugʻat tarkibidagi har qanday birliklar nutqning ijtimoiy, vazifaviy, uslubiy koʻrinishlariga moslashgan boʻladi. Til ijtimoiy hodisa ekan, leksik qatlam ham doimiy harakatda, sayqallanishda davom etaveradi.

Oʻzbek tilidagi oʻzlashma qatlamlarning imkoniyatlari haqida shuni aytish mumkinki, fors-tojikcha, arabcha soʻzlar qatlami ham tilimizdagi soʻzlarning yangi maʼno kasb etishi, uslubiy vazifa bajarishini taʼminlashda maʼlum ahamiyatga ega. Buning natijasi oʻlaroq, oʻzbek adabiy tili yanada boyib, leksik-semantik sistemasida shakllanish, rivojlanish kuzatiladi. Albatta, buning oʻziga xos obyektiv ehtiyoj bilan belgilanuvchi mezonlari mavjud.

Koʻrinadiki, tojik tili rasmiy adabiy til sifatida ham, ikki millat oʻzaro qorishib ketgan xalq tili sifatida ham oʻzbek tili leksik qatlamida alohida oʻrin tutadi. Tojik tilidagi ayrim soʻzlar oʻzbek tili bilan bir qatorda nafaqat adabiy tilda, aholining oʻzaro muomala tilida ham oʻz mavqeyiga ega til boʻlib qoldi. Ayniqsa, bu hol Samarqand va Buxoro hududlarida, Fargʻona va Qashqadaryo viloyatlarida, shuningdek boshqa bir qator shahar va qishloq aholisi uchun xarakterli boʻlgan. Bu ikki til haqida Navoiyning “Muhokamatul-lugʻatayn” asarida goʻyoki bir-biri bilan “poyga oʻynayotgan otlarga” oʻxshatilib, ona tili – turkiy (oʻzbek) tilni nihoyatda qadrlagani va sevgani, uning goʻzalligini kashf etishga qilgan saʼy-harakati barobarida fors-tojik tilini ham yaxshi egallagani hamda jozibador til sifatida eʼtirof etilganini bilamiz. V.V. Bartold taʼbiri bilan aytganda: «... agar arab tili musulmon dunyosi uchun Yevropadagi lotin tilidek ahamiyatga ega boʻlsa, fors tilini fransuz tilining taʼsiri bilan tenglashtirish mumkin»<sup>1</sup>.

Tojik (fors) va oʻzbek (turkiy) tili ham lugʻat tarkibidagi potentsional imkoniyat, lugʻat tarkibining kishilik jamiyatida foydalanilayotgan birliklariga nisbatan miqdoriy jihatdan ustun turadi. Bu ikki tilning genezisi haqida tojik tilshunosligi manbalarida turlicha fikrlarni uchratamiz. N.Bozidovning “Nazaryai zabonshinosi” kitobining “Tasnifoti genealogii zabonho” boʻlimida shunday deyiladi:

Гуруҳи эронӣ – 1) форсӣ- забони давлатии Эрон аст, ғайр аз ин дар базей районҳои Ҳиндустон ва Афғонистон паҳн шудааст. Хадаш арабӣ мебошад.

2) тоҷики- забони адаби-милиии халқи тоҷик аст. Забони тоҷики ғайр аз Тоҷикистон дар баъзе районҳои Ўзбекистон, Қазоқистон ва Қирғизистон ҳам вучӣуд дорад.

Забонҳои турки (турки-тотори)

---

<sup>1</sup>Ноҷиёв А. Оʻzbek tili leksikologiyasi.-Т.: Fan, 1981. – Б.96.

1) турки-хати он аз соли 1929 ба алифбои руси гузашт; 2) озарбойчони 3) туркмани 4) гагаузи 5) крими 6) карачаеви 7) узбеки 8) олтой 9) қазоки 10) қарақалпоқи 11) уйғури...<sup>1</sup>

Tojikcha soʻzlarning oʻzbek adabiy tiliga oʻzlashtirilishi bir davrning mahsuli emas. Ularning tilimizda ishlatila boshlashi bir necha tarixiy taraqqiyot davrlari bilan bogʻliq. Keyingi ikki ming yil davomida Oʻrta Osiyoda, xususan, Oʻzbekistonda mahalliy aholi tili uch marta oʻzgargan, yaʼni sharqiy eron tillari oʻrniga gʻarbiy eron (fors tili) va milodning boshlaridan turkiy tillar keng tarqalgan. Bundan tashqari oʻzbek xalqi va tilining shakllanishida qarluq, qipchoq va oʻgʻuz urugʻlari bilan birga eronzabonlar (sugʻdiy, xorazm) ning ham hissasi katta boʻlgani aniq.

Soʻz oʻzlashtirish jarayonidagi bu kabi holatlardan boxabarlik nutq vaziyatida leksemalarni matndan kelib chiqib oʻz oʻrnida qoʻllash, ulardan toʻgʻri foydalanish imkonini beradi.

Tilning lugʻat tarkibidagi mavjud vositalardan aniq bir nutqiy jarayonda, nutqiy uslublarda erkin, tanlagan holda foydalanish oʻsha nutqiy shaklning leksik normalarini belgilaydi va shakllantiradi.

«Lingvistik poetika» atamasini ilk marta olim V.P.Grigorev oʻtgan asrning 70-yillarida ilmiy muomalaga olib kirgan<sup>2</sup>. Shundan keyin badiiy asar tili estetik-falsafiy, struktur-semiotik, leksik-semantik, uslubiy yondashuvlar asosida oʻrganila boshlandi, badiiy matnga estetik nuqtayi nazardan baho berishga alohida eʼtibor qaratildi.

Oʻrganilgan bir qancha tadqiqot ishlarida poetik nutq, aniq bir ijodkorning til boyligi, undan qay tarzda mahorat bilan foydalanishi, asar tilini adabiyotshunoslik va tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilish yoʻllari haqidagi fikrlar bayon etilgan. Jumladan, Sh.Shoabdurahmonov, J.Esonov, X.Doniyorov, S.Mirzayev, Q.Samadov, A.Ahmedov, N.Shukurovlarning asarlarida shoirning oʻziga xos poetik tili, mahorati haqida qimmatli mulohazalar bildirilgan<sup>3</sup>. Poetik nutqni tadqiq etish borasidagi fikrlar asosida shoir Jamol Kamol sheʼrlari lingvopoetik aspektda oʻrganildi. Poetik taʼsir, tilni bezovchi omillar, turli ifoda vositalarini qoʻllashda ijodkor mahorati ochib berishga harakat qilindi.

Bobning ikkinchi fasli “Jamol Kamol sheʼrlari tilining leksik-semantik tabiati” deb ataladi. Jamol Kamol yangi davr oʻzbek adabiyotida oʻz oʻrniga ega ijodkor boʻlib, uning sheʼriyati shoir merosining oʻziga xos yorqin sahifasini tashkil etadi. Zero, shoir ijodi Sharq va Gʻarb adabiyoti sarchashmalaridan oziqlangan, maʼrifiy gʻoyalar bilan boyitilgan. Shoir sheʼriyati oʻziga davrdosh, avloddosh boʻlgan shoirlarning birortasini takrorlamaydi. Uning aruz va barmoqda baravar ijod qilish xususiyati Oʻzbekiston Qahramoni E.Vohidovga

<sup>1</sup> Bozidov N. Nazaryai zabonshinosi. Nashriyoti “Maorif” Dushanbe-1977. B.17.

<sup>2</sup> Григорьев В.П. Поэтика слова. –М.: Наука, 1979.

<sup>3</sup> Esonov J. Badiiy asar tilini oʻrganish//Oʻqituvchilar gazetasi 1963. 6 dekabr. Ahmedov A. Badiiy asar tilini oʻrganish haqida. Oʻzbek tili va adabiyoti masalalari. 1960. №3. –B.46-50.Doniyorov X., Mirzayev S. Soʻz sanʼati. Toshkent, 1962. –B.171-187.Doniyorov X., Mirzayev S. Soʻz sanʼati. Toshkent, 1962. B.173-174. Shoabdurahmonov Sh. «Ravshan» dostonining tili va stili. AKD. Toshkent. 1949; «Poʻlat quyuvchi» poemasi tili haqida baʼzi mulohazalar//Sharq yulduzi 1948. 4-son; Oybek romanlarining tili//Sharq yulduzi. 1955. 10-son.

yaqinlashtiriladi<sup>1</sup>. Jamol Kamol poeziyasining xarakterli jihati unda ruhiy-psixologik kechinmalarning ustuvorligida ko‘rinadi.

Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, har qanday nutq mohiyatidan kelib chiqib saralab, tanlab ishlatilgan so‘zgina shoir ichki kechinmalarini, poetik fikrni to‘liq ifodalashiga sabab bo‘ladi. She‘riyatda ohangdorlik yoki xushohanglikni ta‘minlash eng birinchi shart hisoblanadi. Unda so‘zlar tarkibida qatnashuvchi tilning eng kichik birligi fonemalar ham, qofiyalar ham xushohanglikka xizmat qilishi lozim. Bularning hammasiga til vositalari orqali erishiladi. Ayni shu o‘rinda tilshunoslik bilan adabiyshunoslikning tekshirish ob‘yekti ham, manfaati ham to‘qnashadi.

Jamol Kamol she‘rlarida umumnutqqa tegishli so‘zlar bilan bir qatorda poetik so‘zlarning ma‘lum bir uslubiy vazifa bajarganiga guvoh bo‘lamiz.

Mehr ham o‘zingsan, tobon ham o‘zing,  
Shu so‘ngsiz, qiroqsiz koinotga bosh<sup>2</sup>.

Shoir ijodiga mansub “Nido” she‘rida quyoshga nisbatan an‘anaviy “mehr” leksemasi qo‘llangan. Fors-tojik tilidan o‘zlashgan “tobon” so‘zi “yorug‘, porloq, yaltiroq, yorqin, nurli” so‘zlariga ma‘nodosh sifatida ishlatiladigan leksema bo‘lib, she‘riy nutqda “mohi tobon, xurshidi tobon” izofali birikma tarkibida qo‘llangan. Keyingi misrada ham xuddi shu jarayonni kuzatamiz, ya‘ni “koinot”ga tashbeh sifatida “so‘ngsiz” birligi keltirilganki, bu so‘z an‘anaviy umumiste‘moldagi birlik deb qaraladi. “Qiroqsiz” birligi esa o‘zbek tilining izohli lug‘atida uchramaganini alohida qayd etish lozim. Bu shoirning poetik nutqidagi topilmalardan biri bo‘lib, koinotning chegarasizligi, hadsizligini ifodalashga xizmat qilayotgani ma‘lum. Chunki qirg‘oq suv havzasi birikmasi bilan birga qo‘llanadigan, mazmunan “daryo, dengiz” leksemalari bilan yonma-yon turishini e‘tiborga olsak, “qiroqsizlik” “koinot” leksemasiga nisbatan “chek-chegarasizlik” ma‘nosini tashiydi.

Lekin sen Vatanni tutib begona,  
Naysoningni undan aylasang darig‘,  
Qancha afsun bo‘lma, qancha afsona,  
Men seni falak deb atamasman, yo‘q...

Shoir misralarda she‘r ahli nutqida tez-tez takrorlanadigan “yomg‘ir” o‘rnida fors-tojik tilidan o‘zlashgan, erta bahorda, aprelda yog‘adigan yomg‘irni ifodalovchi “nayson” leksemasidan foydalangan. Bu o‘z o‘rnida nutqning ta‘sirchanligini, obrazlilikini oshirishga xizmat qilgan. Jamol Kamol she‘rlarida tojikcha-o‘zbekcha so‘zlarning semantik maydoni xilma-xil va rango-rang leksemalardan iboratligi e‘tiborimizni tortadi.

Har qanday tilni sayqallashda shu tilda ijod etuvchi shoir, yozuvchilar, olimlar roli benihoya katta. J.Kamol ham ana shunday serqirra ijodi bilan tilimizning leksik qatlamini boyitishda, uning naqadar rang-barangligi, o‘ziga xosligini ko‘rsatishda davom etayotgan til bilimdoni desak mubolag‘a emas. So‘z qo‘llashda

<sup>1</sup> Haqqul I. She‘r – kuygan ko‘ngil izhori. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ibrohlim-haqqul-she-r-kuygan-yurak-izhori.html>

<sup>2</sup>Jamol Kamol. Saylanma. Olti jildlik. I jild. Asr bilan vidolashuv. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2018. – B.131.

mohir shoir she'rlaridagi leksemalarning tabiati tadqiq etilganda, lirik nutqdagi ma'no ottenkalari umumnutqqa mansub ma'nosiga urg'u berilgani, ma'no yuki balandligi, tushunarli variantlardan foydalanilgani ayon bo'ldi.

Jamol Kamolning "O'zbek tilim" qasidasi misolida uning she'riyatidagi tojikcha-o'zbekcha so'zlarning lug'aviy-uslubiy xususiyatlari, leksik-semantik tabiatini o'zaro qiyoslash asosida tadqiq etish jarayonida o'zbek adabiy tiliga ko'plab fors-tojik leksemalarining o'zlashgani, nutq vaziyatidan kelib chiqib, turli semalarda namoyon bo'lishi kuzatiladi:

Dilbarimsan shu jahonda,  
Dilrabo o'zbek tilim.  
Ham go'zalsan, ham asal,  
Ohanrabo o'zbek tilim<sup>1</sup>.

"Dilbar" forscha so'z bo'lib<sup>2</sup>, dilkash, dilfireb; kase ki bo husni xud digarero dilboxtayi xesh mekunad; xushro', ra'no; mahbuba, yor" "dilni tortuvchi, jalb etuvchi, yoqimli, dilni maftun etadigan, o'ziga tortadigan, dilrabo" ma'nosini ifodalaydi<sup>3</sup>. Ona tiliga nisbatan "dilbar" so'zi qo'llanib, belgiga o'xshashlik asosida metaforik sema ifodalanyapti. Izohli lug'atda ko'rsatilgan beshta semadan o'zbek tiliga nisbatan qo'llangan "dilbar" so'zining "yoqimli" semasi ustuvorlik qilgan. Tilshunoslikning graduonimik qatorida "dilbar" so'zining o'rganilishi jarayonida ham "chiroyli-go'zal-yoqimli-maftunkor-dilbar" sifatidagi darajalanish kuzatiladi.

Jamol Kamolning "Asr bilan vidolashuv" she'riy to'plamida 1958-yildan boshlab to 1985-yilgacha yozilgan turli mavzuga bag'ishlangan she'rlari jamlanganligini e'tiborga olgan holda, shu to'plam asosida adibning tojikcha (forscha), o'zbekcha (turkiy), arabiy leksemalardan foydalanganini miqdoriy nisbatda aniqlashga harakat qildik. To'plamdagi she'rlarda (to'plamdan o'rin olgan dostonlar bundan mustasno) jami **38 573** ta leksema mavjud bo'lib, shundan **18 515** tasi o'zbekcha (turkiy), **12 343** tojikcha (fors), **7 715** tasi arabcha ekanligi aniqlandi. Ya'ni **48 foiz o'zbekcha** (turkiy), **32 foiz tojikcha** (forsiy), 20 foiz arabcha so'zlardan foydalanganini miqdoriy nisbati keltirib chiqarildi. Ko'rinadiki, shoir she'rlarida tojikcha leksemalarning qo'lanishi juda ko'p miqdorda bo'lib, o'z o'rnida ohangdoshlikni ta'minlash uchun, ayrim hollarda esa umumnutqqa aylangan birliklarni qo'llashni ma'qul ko'rganidan deb, baholash joiz.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Jamol Kamol she'rlarida an'anaviy lisoniy birliklarning qo'llanishi**" deb nomlangan bo'lib, birinchi fasli "Tojikcha-o'zbekcha an'anaviy lisoniy birliklarning shoir ijodidagi tadqiqi" masalasiga bag'ishlandi. Bugungi kun zamonaviy tilshunosligida til va tafakkur, til va madaniyat, til va nutq, til va madaniyatlararo muloqot munosabatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Lison, lisoniy birlik, an'anaviy lisoniy birliklar haqida juda ko'p qarashlar mavjud. Lison – tilning kishi ongidagi til xotirasi markazida

<sup>1</sup>Jamol Kamol. Anvarmirzo hikoyatlari. Saylanma. Olti jildlik. V jild. Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2018 yil. – B. 85.

<sup>2</sup> Фарҳанги забони тоҷики. I жилд. –Душанбе.2008. – Б.283

<sup>3</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. A.Madvaliyev tahriri ostida. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.–2008. – B. 154.

mavjud birliklardan va ulardan foydalanish qoidalaridan iborat zaxira ekan, nutq esa ana shu zaxiradan foydalanish jarayoni va shunday jarayonning hosilasi. Mumtoz she'riyatda ham bir-biriga ko'chish, nafaqat lisoniy, obrazlar mushtarakligiga guvoh bo'lish, balki an'anaviy poetik obrazlar tizimi mavjudligini ham ko'rish mumkin.

Mumtoz adabiyotda keng qo'llangan, asrlar davomida adabiyot olamida tanish bo'lgan ko'pgina tojikcha-o'zbekcha lisoniy birlikdan o'z she'rlarida mahorat bilan foydalanganini ko'ramiz:

Qatra-qatra yosh to'karda misli bir laylo qadah,  
Ham chekar mehri – vafodin ohi vovaylo qadah...<sup>1</sup>

Misrada “yosh” leksemasi shakldosh bo'lib, bir nechta ma'nosiga ega bo'lsa-da, “ko'z” leksemasi bilan yonma-yon berilmasa ham “to'kar” leksemasi ko'magida fikrni to'liq anglash imkoni paydo qilingan. Matnda “oh-voh, dod-faryod” tarzida keng qo'llanadigan undov so'zning “ohi vovaylo” ko'rinishidan foydalanilgan. Bundan tashqari an'anaviy *mehr, sarv, quyosh, may, paymona, vafo, jom, yor* kabi an'anaviy lisoniy birliklarni uchratamiz.

Jamiyatdagi ijtimoiy holat, insoniyat hayotidagi rivojlanish, evrilish, yuksalishu tanazzul – barcha-barchasi lingvistikada aks etadi. Tilimizda mavjud bo'lgan birgina so'zning o'zi nutq tarkibida vaziyatga qarab turlicha semalarni ifodalab beradi. Ong ostida mavjud bo'lgan qarashlarimiz ruhiy holatimizni aynan aks ettiruvchi leksema orqali ifodalanadi.

Uzun kipriklari gulgun,  
Dudoqlar g'uncha-yu xandon,  
Chizilgan jonli tasvirdek  
Biram nozik, biram nozik <sup>2</sup>.

G'azaldagi ushbu satrlarda ma'shuqaning go'zalligi: kipriklari, dudog'ini tasvirlashda o'zbek mumtoz adabiyotiga xos bo'lgan an'anaviylik mavjudligini kuzatamiz. Shoir ijodida mumtoz she'riyat nafasini beruvchi lisoniy qatlamga murojaatlar borligini ko'rish mumkin.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli “Metaforik ma'no va obrazlarni tasvirlashda Jamol Kamol mahorati” deb nomlangan bo'lib, shoir asarlari tilida har bir semaning bo'yoqdor uslub kasb etishi uning mag'zini to'qlashtirib, tilning leksik qatlami nechog'li imkoniyatga boy ekanligini ko'rsatadi. Tilshunoslikda so'zlardagi ko'chma ma'noning bu turi metafora – o'xshatish asosida hosil qilingan ko'chma ma'no deyiladi. Bunday ko'chma ma'no hosil qilishning eng keng tarqalgan usuli sifatida badiiy uslubning, nutq badiiyatining eng asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Semema tarkibidagi semalar asosida nutqda ko'chma ma'no hosil qilish bir ma'nolilik, ya'ni atama tabiatiga ega bo'lmagan deyarli barcha so'zlar uchun xosdir. Shoir she'rlarida quyidagi holatni uchratamiz:

Bizga nomussan, sharafdiansan,  
tiriklik chashmasi,  
Bo'lmasang sen, baxtimiz

<sup>1</sup>Jamol Kamol. Saylanma. Olti jildlik. I jild. Asr bilan vidolashuv. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2018. –B.343.

<sup>2</sup> Jamol Kamol. Shu manba. – B.291.

bo'lgay qaro, o'zbek tilim.

“Baxt” fors-tojikcha so‘z bo‘lib, “taqdir, nasiba, ulush” degani. 1. Kishining o‘z faoliyati natijalaridan, hayotda qo‘lga kiritgan yutuqlaridan to‘la qoniqishi, yashash tarzidan mamnunligi, muayyan maqsadga etgani, orzu-umidining ushalihi sifatida namoyon bo‘ladigan ma’naviy-axloqiy tushuncha; 2. Hayotdan to‘la mamnunlik va bearmonlik holati; saodat, qut. Ko‘p hollarda “baxt” so‘zi “qora” sifati bilan birgalikda metaforik ma’no kasb etadi. Tilimizda “baxtiqaro” leksemasi ham bor.

